

## OLTINSOY TUMANIDAGI TOPONIMLARNING LINGVISTIK TADQIQI

Safarova Shahlo Shuhrat qizi

*Termiz davlat universiteti**Lingvistika: o'zbek tili 1-bosqich magistranti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada toponimlar va toponimika haqida bir qancha ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidagi ba'zi toponimlarning lingvistik tadqiqi keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *toponim, gidronom, oronim, oykonim, urbanonom, antrotoponim, mikrotoponim, etnotoponim.*

I.A.Karimov aytganidek, " Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi". Bugungi kunda ajdodlarimiz bunyod etgan tarix, shuningdek, uning ajralmas bo'lagi hisoblangan mamlakatimizdagi moddiy va ma'naviy meroslar, joylar, obidalar va shu kabilarning yaratilishi tarixiga qiziqish uyg'onganini va kun sayin o'zbek xalqi va boshqa mamlakatlarning sayyohlarining e'tibori kuchayganini mamnuniyat bilan tilga olamiz. Shuningdek, bugungi kunda toponimlar-joy nomlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda.

Insonlar tabiatni tanib tirikchilik qilib boshlagandan keyin, o'zlarining atroflaridagi yerlarni, daryo-ko'llarni, tog'laru qir-adirlarni, yaylovlarni ma'lum bir nom bilan atab kelganlar. Ilk toponimlar oddiy turdosh otlardan farq qilmaydigan sodda nomlar bo'lgan. Atrof-muhiti haqidagi tasavvurlari kengayib, bir buloqni ikkinchisidan, bir o'tloqni boshqasidan, yaqinidagi tepalikni narigisidan farqlash ehtiyoji tug'ila boshlagan. Shundan so'ng Kattabuloq — Kichikbuloq, Qiziltepa — Ko'ktepa, Tuyayaylov — Echkiyaylov kabii murakkabroq joy nomlari paydo bo'lgan. Kishilik jamiyatining ijtimoiy onggi rivojlangani sari bunday tunchalar soni ortib borgan, shuningdek, geografik nomlar grammatik va semantik jihatdan murakkablasha borgan. Ammo qadimgi davrlarda yozuv paydo bo'lmagani sababli ibtidoiy zamondagi geografik nomlar bizgacha yetib kelmagan. Biroq yozuv paydo bo'lganidan keyingi davrdagi joy nomlarini bitiklar va asarlar orqali bilib olishimiz mumkin. Toponimika yunoncha "topos" — "joy" va "onoma" (yoki "onima") — "nom" so'zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari, ya'ni toponimiya bir necha turga bo'linadi. Bular: gidronomiya (yunoncha "gidro"— suv), ya'ni

daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya (yunoncha "oros"- tog')— tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar nomlari; oykonimiya (yunoncha "oykos"— uy) , polinimiya (yunoncha "polis"— shahar) yoki urbanomiya (lotincha "urbos"— shahar), ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, mikrotoponimiya (yunoncha "mikros"- kichik) ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, jarlar, yo'llar, ko'priklar va hattoki atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha "etnos"-xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar (yunoncha "antropos"— odam) deb atash mumkin.

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani ham o'zining bir qancha mashhur joylari bilan mashhur. Misol uchun Xo'jaipok toponimini olaylik, Xo'jaipok- Xo'ja-"ism" yoki "ustoz", ipok- "o'rin-joy", "hudud" degan ma'nolarni bildiradi. Rivoyatlarda Xo'jai Xizr degan ulug' inson bo'lgani va u kishining tabarruk lutflari, harakatlari va ko'rsatgan karomatlari uchun bu joy uning nomi bilan atalgani haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Vaxshivor- "vakhsh"- "yovvoyi", "vor" -"joy, hudud" so'zlaridan tashkil topgan. Yovvoyi tabiiy muhitga ega joy. Qadimda bu yerlar ilonlar vodiysi bo'lgani sababli ham shu nom bilan atalgan degan taxminlar mavjud. Obshor- "ob"- "suv", "shor"- "qirg'oq", "sohil" so'zlaridan kelib chiqqan. Sharshara yonidagi qishloqqa nisbatan aytilgan. Mirshodi- "Mir"-amir, "shod"- xursand, baxtiyor degan so'zlardan tashkil topgan. Dastlabki hovli-joyini qurib, qishloq tashkil bo'lishiga sababchi bo'lgan Mirshod ismli kishining nomiga qo'yilgan. Karsagon- Qadimgi eroniy tilda qar/g'ar-"tog'", sak- xalq nomi, -on "lar" qo'shimchasi ya'ni jamlik ma'nosini bergan. Tog' yaqinidagi saklarning qishlog'i.

Joy nomlari jamiyat tarixi bilan bog'liq hisoblanadi. Chunki, joylarga qanday nom berish avvalo jamiyatning biror bosqichdagi ehtiyojlari sababli yuzaga keladi. Shu sababli joy nomlari tarixini bilish orqali bir qancha lingvistik yoki geografik ishlarni amalga oshirish mumkin. Ko'rinib turibdiki, biron-bir geografik yoki bir guruh nomning kelib chiqishi va tarixini mumkin qadar aniqroq tushuntirib berishni maqsad qilib olgan toponimik tadqiqot oson ish emas, balki talay vaqt hamda katta kuch talab qiladi. Va aynan Oltinsoy tumanida ham bir qancha tarixiy va hozirgi kunda ham saqlanib qolgan bir qancha toponimlar orqali tarix, geografiya va etnografiya fanlariga foydali ma'lumotlar mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda ta'lim dargohlarida o'quvchilarga tarix va etnografiyani o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish, shuningdek, davlatimiz tarixiga oid bo'lgan bilimlarini rivojlantirish, boyitish va kelajak avlodga yetkazish lozim. Boshlang'ich

bilimlar bilan birga geografik nomlarning yasalishi, grammatik tuzilishi, imlosi, etimologiyasi, geografik obektlarni nomlashning asosiy qoidalarini va geografik terminlarni chuqur o'rganish zarur. Shuningdek, ta'lim jarayonida geografik nomlarni o'rganish o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi va vatanparvarlik ruhining o'sishida toponimlarni o'rganish muhim hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998 y. – 9 b.
2. Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992 y. – 71 b.
3. Ahmadaliyev Y. Toponimika va geografik terminshunoslik. – F.: 2018 y. – 10 b.
4. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari. – T.: 33 – 34 b. 5. O'rinboyev A., Bo'riyev O., Muhammad Solih. – T.: – 56 b.
6. Бахронова Д., Абдурахматова Н. Испан ва ўзбек тилларига ўзлашган неологизмларнинг тарихий-семантик тадқиқи/ Молодой ученый, 2021.
7. <https://moluch.ru/archive/394/87140/>
8. Nizomov A., Rahimova G., Rasulova N., Toponimika. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. – 1 – 50 b.